



**MÁMLEKETLIK AKTIVLERDI BASQARÍW AGENTLIGINI N'
QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ AYMAQLÍQ BASQARMASÍNIN'**

B U Y R U G' I

05-Sentyabr 2023-jil.

№ 149

No'kis qalasi

**O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish
agentligining 2023-yil 26-avgustdagi 232-sonli buyrug'i ijrosini
tashkil etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 26-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustdagi "Baliqchilik xojaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo'yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-281-son qarori ijrosini tashkil etish to'g'risida"gi 232-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustdagi "Baliqchilik xojaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo'yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-281-son qarori (keyingi o'rinlarda - Qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq:

a) 2023-yil 01-oktabrdan boshlab quyidagilar tadbirkorlik subyektlariga "E-auksion" elektron savdo platformasida elektron onlayn auksion orqali ijaraga berilishi:

davlatga tegishli tabiiy va sun'iy suv havzalari (suv omborlari) - baliqni sanoat usulida yetishtirish, ovlash va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar uchun;

tabiiy va sun'iy suv havzalari (suv omborlari) hamda daryo atrofidagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari - suv bo'yida plyaj zonalarini tashkil etish, sport-ishqibozlik turidagi baliq ovlash, baliq ovi, qayiqda suzish va suv sayohati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish, baliq mahsulotlari, shu jumladan baliq taomlari savdosi, umumiy ovqatlanish va boshqa turizm xizmatlarini tashkil etish

hamda ushbu maqsadlarda yengil konstruksiyali qurilmalarni (o'tov lagerlari majmuasi, konteynerlarni) joylashtirish uchun;

Bunda, mazkur bandda belgilangan talablar ijara shartnomalarining amal qilish muddati tugamagan tabiiy va sun'iy suv havzalariga (suv omborlariga) hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-fevraldagi PQ-141-son qarori bilan boshqaruvi takomillashtirilgan Aydar-Arnasoy ko'llar tizimiga nisbatan tatbiq etilmasligi;

b) "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasi (keyingi o'rinlarda-Uyushma) ikki hafta muddatda unga tanho foydalanishga berilgan reproduktiv ahamiyati past va doimiy ixtiofaunaga ega bo'lmagan tabiiy suv havzalarini Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tizimidagi tashkilotlarga ulardan samarali foydalanish uchun 1-ilovaga muvofiq topshirilishi;

d) 2023-2024-yillarda baliq ovlash va suv bo'yi turizmi maskanlari tashkil etiladigan o'rmon fondi yerlari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq;

e) 2023-2024-yillarda baliqni sanoat usulida yetishtirish, ovlash va suv bo'yi turizmi maskanlari tashkil etiladigan suv omborlari ro'yxati 3-ilovaga muvofiq;

f) Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Suv xo'jaligi vazirligi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari bilan birgalikda mazkur qarorga 2-3-ilovalarda belgilangan hududlarda baliq yetishtirish, ovlash va suv bo'yi turizmi maskanlarini barpo qilish uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini lotlarga bo'lgan holda elektron onlayn auksion orqali savdolarga chiqarib borishni tashkil etishi;

g) 2024-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda baliq yetishtirishning prognoz parametrlari 4-ilovaga muvofiq;

h) Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir oy muddatda davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subyektlariga "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibini tasdiqlanishi;

i) 2024-yilda sun'iy suv havzalarini intensivlashtirish bo'yicha prognoz parametrlar 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi **ma'lumot, ijro va nazorat uchun qabul qilinsin.**

3. Boshqarma boshlig'i o'rinbosari (Mnajov) atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tizimidagi tashkilotlarga Uyushma tomonidan tabiiy suv havzalarini topshirish bo'yicha topshirish-qabul qilish dalolatnomalarini rasmiylashtirishda amaliy yordam ko'rsatsin.

4. Boshqarma boshlig'i o'rinbosari – Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (**Embergenov**) **2023-yil 01-oktabrdan boshlab** tadbirkorlik subyektlariga quyidagilar uchun "E-auksion" elektron savdo platformasida elektron onlayn auksion orqali ijaraga berilishini tashkil etsin;

davlatga tegishli tabiiy va sun'iy suv havzalari (suv omborlari) - baliqni sanoat usulida yetishtirish, ovlash va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar uchun;

tabiiy va sun'iy suv havzalari (suv omborlari) hamda daryo atrofidagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari - suv bo'yida plyaj zonalarini tashkil etish, sport-ishqibozlik turidagi baliq ovlash, baliq ovi, qayiqda suzish va suv sayohati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish, baliq mahsulotlari, shu jumladan baliq taomlari savdosi, umumiy ovqatlanish va boshqa turizm xizmatlarini tashkil etish hamda ushbu maqsadlarda yengil konstruksiyali qurilmalarni (o'tov lagerlari majmuasi, konteynerlarni) joylashtirish uchun ijaraga berilishi inobatga olinsin.

5. Murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi v.v.b (Urazbayeva) mazkur buyruq nusxasini Davlat ishtirokidagi korxonalarida korporativ munosabatlarni ta'minlash sho'basiga hamda Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish Markazning Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasiga shaxsan yetkazilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Boshqarma boshlig'i



M. Radjapov